

**ONA TILI DARSLARIDA O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI  
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

*Xusenova Aziza Shamshod qizi*

*ToshDO 'TAUning 3-kurs talabasi*

+998904138053

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada umumta'l'm maktablarda ona tili darslari jarayonida o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlar, samarali uslublar va amaliy tavsiyalar aks ettirilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qib tushunish ko'nikmasini mustahkamlashga yordam beruvchi interaktiv mashqlar va topshiriqlarning o'rni yoritilgan. Maqolada mavjud muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish yo'llari ham taklif etiladi.

*Abstract:* This article reflects methodological approaches, effective methods and practical recommendations aimed at developing students' reading comprehension skills in the process of native language lessons in secondary schools. It also highlights the role of interactive exercises and tasks that help strengthen reading comprehension skills based on modern pedagogical technologies. The article analyzes existing problems and suggests ways to overcome them.

*Абстрактный:* В статье отражены методические подходы, эффективные приемы и практические рекомендации, направленные на развитие навыков понимания прочитанного у учащихся на уроках родного языка в общеобразовательных школах. Также подчеркивается роль интерактивных упражнений и заданий, способствующих закреплению навыков понимания прочитанного на основе современных педагогических технологий. В статье анализируются существующие проблемы и предлагаются пути их преодоления.

**Kalit so'zlar:** ona tili, o'qib tushunish, metodika, kompetensiya, dars jarayoni, interaktiv metodlar, tahlil qilish, fikr yuritish.

**Keywords:** native language, reading comprehension, methodology, competence, teaching process, interactive methods, analysis, thinking.

**Ключевые слова:** родной язык, понимание прочитанного, методика, компетентность, процесс обучения, интерактивные методы, анализ, мышление.

### **Kirish**

Hozirgi kunda o'qib tushunish bilish va muloqot vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tinglash kanallariga qaraganda ko'rish kanallarining o'tkazish layoqati birmuncha yuqori. Shu bois matn ko'rinishida tavsiya qilingan axborot eshitilgan axborotdan ko'ra ishonchli va samarali tarzda qabul qilinadi hamda moddiy ehtiyojlar tejaladi.

O'qib tushunish — bu o'quvchining matn ustida faol fikrlashini, muallif fikrini anglashini, mohiyatni tahlil qilib, shaxsiy munosabat bildirishi va yangi bilimlarni ongli ravishda qabul qilishi bilan bog'liq jarayondir. Ta'lim sifatini oshirishda o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirish asosiy o'rin tutadi. Bu ko'nikma orqali nafaqat ona tili, balki boshqa fanlarni ham chuqurroq o'zlashtirish imkonini bo'ladi.

G.A.Asilova - ped. fan. doktori (DSc) ToshDO'TAU professori o'qib tushunish

haqida shunday deydi: "O'qib tushunish - nutqiy faoliyatning turlaridan biri sifatida murakkab psixofiziologik jarayon bo'lib, faqat muayyan lingvistik poydevor, ya'ni fonetik va leksik-grammatik bilimlar asosida amalga oshiriladi. O'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda ushbu jarayonning 2 tomoni, ya'ni yozma xabarni qabul qilishga tayyorlaydigan o'qish texnikasini hamda axborotni sodir bo'lgan nutqiy faoliyat mahsuli sifatida anglashni inobatga olish zarur. Buning muhim sharti esa tizimli va maqsadga qaratilgan maxsus mashqlarni bajarishdir. O'qishni nazorat qilish obyekti matnning til materiali emas, uning mazmunini tushunishdir. Nutqiy faoliyatning barcha turlari bo'yicha o'zaro bog'liq ta'limning

maqsadga muvofiqligi va samarasi haqidagi metodik qoida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish boshqa nutqiy ko'nikmalar, avvalambor gapirish ko'nikmalari bilan parallel tarzda rivojlantirilishini taqozo etadi<sup>1</sup>”.

### **Muammo va yechim**

Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab o'quvchilar o'qigan matnini chuqur anglashda, asosiy va ikkinchi darajali fikrlarni farqlashda, matndan xulosa chiqarishda qiynaladilar. Bu holat, ko'pincha, o'qituvchilarning an'anaviy usullardan foydalanishi, darslarda faqat grammatik bilimlarni ustuvor qo'yishi, matn bilan ishlashda interaktiv yondashuvlarning yetishmasligi bilan bog'liqdir.

Muammoni hal etish uchun quyidagi metodik tavsiyalarni taklif etish mumkin:

Matnni bosqichma-bosqich tahlil qilish: har bir bo'lakni o'qib, savollar berish va muhokama qilish.

Klaster, konsept xarita, “5W1H” (kim? nima? qayerda? qachon? nega? qanday?) usullari orqali fikrni vizuallashtirish.

Rollar asosida o'qish (rolga kirib matn o'qish) – bu usul o'quvchini voqeaga aralashgandek his qildiradi va tushunishni kuchaytiradi.

Savol-javob asosida matn ustida ishlash, har bir paragraf bo'yicha savollar ishlab chiqish.

Matnga asoslangan esse yoki kichik hikoya yozdirish.

Misol uchun, 6-sin ona tili darsligida Sa'dullo Quronovning “Boshi berk ko'cha” nomli matniga nazar tashlasak:

“Boshi berk ko'cha” degan iborani ko'p eshitgansiz. Bu kirish joyi bo'lib, chiqish joyi yopiq ko'chaga aytildi. Bilasizmi, inson organizmida ham shunday a'zo bor. U appendiks deb ataladi. Qornimizning ichida yo'g'on ichak degan, qazi yoki kolbasaga o'xshab ketadigan a'zo bo'lib, uning boshlanish qismi ko'richak deb ataladi. Appendiks esa ko'richakka ulangan, uzunligi 5–10 cm keladigan chuvalchangsimon a'zo. Appendiksning og'rib qolishi esa “appenditsit kasalligi” deyiladi. Demak, “Ko'richagimni oldirib tashladim” degan gap noto'g'ri. Odam

---

<sup>1</sup> G.A. Asilova. Ilmiy tadqiqot faoliyati asoslari. Uslubiy qo'llanma.– T., 2020. – 128 b.

ko'richaksiz yashay olmaydi. Shifokorlar faqat ko'richakka ulangan jajji appendiksni olib tashlaydilar, xolos. Appendiksni kichkina xaltachaga o'xshatish mumkin. Uning ichida turli bakteriyalar yig'iladi. Olimlar uzoq yillar davomida appendiksni odam uchun keraksiz a'zo deb hisoblashgan. Hatto Germaniyada yangi tug'ilgan bolaning appendiksi jarrohlik yo'li bilan olib tashlangan. Ammo 2007-yilda amerikalik olimlar appendiks juda muhim, kerakli a'zo ekanini isbotlashdi. Bu jajji xaltachaning ichida immun tizimining foydali bakteriyalardan iborat katta qo'shini "uxlab" yotadi. Agar yo'g'on ichakda zararli bakteriyalar ko'payib, qorningiz og'rib qolsa va immun "qo'shini" ularni yenga olmasa, appendiks ichidagi zaxira "qo'shini" yordamga keladi! Ammo ayrim bolalarning ko'p miqdorda yog'li ovqat, pista va yong'oq iste'mol qilishi oqibatida appendiks ichi zararli bakteriyalar bilan to'lib, kasallanib qolishi mumkin. Bunda oldiniga kindik yuqorisi, so'ng qorinning o'ng tomoni qattiq og'riydi. Ko'ngil aynib, tana harorati ko'tariladi. Bu vaqtida tez shifoxonaga borish shart. Appendiks jarrohlik yo'li bilan olib tashlanadi<sup>2</sup>.

Avvalo matnga olib kiruvchi topshiriq va uni mustahkamlovchi savol va topshiriqlar berish orqali manning mohiyati ochiladi. Bundan tashqari, matnda ishtirok etgan tibga oid so'zlar o'quvchi uchun erish tuyulishi mumkin. Shuning uchun undagi yangi so'zlar ma'nosini topib olish maqsadga muvoviq bo'ladi. Keyingi basqichda esa oddiy savollar bilan o'quvchiga murojaat qilish va bu orqali matn mazmunini esga solish yaxshiroq bo'ladi. So'ngra topshiriqlar orqali tushunish bosqichi nihoyasiga yetadi.

### **Xulosa**

O'qib tushunish — bu o'quvchining bilim olish, o'z fikrini mustaqil ifodalash, atrofdagi hodisalarni anglashdagi muhim vositadir. Ona tili darslarida bu ko'nikmani rivojlantirish uchun interfaol, shaxsga yo'naltirilgan metodik yondashuvlar muhim ahamiyatlari bo'ladi. O'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchining tafakkurini rivojlantiruvchi rahbar sifatida harakat qilishi

---

<sup>2</sup> Ona tili [Matn]: 6-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.–224 b.30-bet.

lozim. Shundagina o'quvchilarda o'qigan matnni tushunish, uni tahlil qilish, muallif fikriga tanqidiy yondashish ko'nikmalari shakllanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ona tili [Matn]: 6-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.–224 b.30-bet.
2. Muxitdinova X.S. O'zbek tilini o'qitish metodikasi (o'zga tilli guruhlarda) / Monografiya. T., 2021.
3. G.A. Asilova. Ilmiy tadqiqot faoliyati asoslari. Uslubiy qo'llanma.– T., 2020. – 128 b.
4. Ismailov A. v.b., Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash. – Toshkent, «Sharq», 2019, 92 b.